O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

AHOLI VA DAVLAT XIZMATCHILARINING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDAGI BILIMLARINI UZLUKSIZ OSHIRISH TIZIMINI JORIY QILISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va institutsional asoslari takomillashtirilib, jamiyatda korrupsiya illatiga nisbatan murosasiz muhitni shakllantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.

Jumladan, davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy mexanizmlari keng joriy etilib, ularning faoliyatida ochiqlikni ta’minlash va jamoatchilik oldida hisobdorlikni oshirish bo‘yicha tizimli choralar ko‘rildi.

Shu bilan birga, aholi va davlat xizmatchilarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularga “halollik vaksinasi”ni singdirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish tizimini zamon talablaridan kelib chiqqan holda yangi bosqichga olib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga muvofiq aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirib borishning keng qamrovli tizimini joriy etish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) va Bosh prokuraturasining aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirishga qaratilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasini (keyingi o‘rinlarda — Virtual akademiya) 2025-yil 1-yanvardan joriy etish haqidagi taklifi ma’qullansin.

2. Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimining ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, yosh avlod ongiga halollik qadriyatlarini singdirish;

korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan davlat xizmati lavozimlaridagi xodimlarning bilim, ko‘nikma va malakalarini doimiy ravishda oshirib borish;

davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini baholash va sertifikatlash hamda sertifikat olgan davlat xizmatchilarining reyestrini yuritish;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi milliy va xorijiy tajriba, ilmiy, uslubiy va amaliy ishlanmalar, erishilgan yutuqlar bo‘yicha elektron ma’lumotlar bazasini yuritish;

korrupsiyaga qarshi kurashishning dolzarb muammolari yuzasidan ilmiy-tadqiqot dasturlari va loyihalarini, shu jumladan, milliy, xorijiy va xalqaro grantlarni jalb qilgan holda amalga oshirish.

3. Belgilansinki, Virtual akademiyada o‘quv faoliyatini tashkil etish va yuritish Agentlik hamda Huquqni muhofaza qilish akademiyasi (keyingi o‘rinlarda — Akademiya) tomonidan amalga oshiriladi. Bunda:

a) Agentlik:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitilishi lozim bo‘lgan davlat xizmatchilari kontingentini shakllantiradi va Akademiya bilan kelishgan holda yillik o‘qitish reja-grafigini tasdiqlaydi;

o‘quv jarayoni sifatli tashkil etilishini monitoring qilib boradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosati, korrupsiyaviy xavf-xatarlar va tadqiqot natijalarini inobatga olib, yangi o‘quv modullarini joriy etish bo‘yicha Akademiyaga takliflar kiritadi;

o‘qitish tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun o‘quv jarayoniga jalb qilingan davlat organlari va tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik qiladi;

Akademiya bilan birgalikda har yili O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashiga Virtual akademiya faoliyati yuzasidan axborot kiritadi;

b) Akademiya:

Virtual akademiyaning uzluksiz ishlashini, o‘quv kontenti va materiallari bilan muntazam to‘ldirilishi va yangilab borilishini ta’minlaydi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘quv jarayonini tashkil etadi, shu jumladan o‘quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqadi, o‘quv kurslari haqidagi ma’lumotlarni Virtual akademiyada joylashtiradi;

tinglovchilarning bilimlarni o‘zlashtirishi natijalari bo‘yicha elektron ma’lumotlar bazasini shakllantiradi, o‘quv kurslarini tamomlagan shaxslarning reyestrini yuritadi;

o‘quv jarayoniga davlat organlari va tashkilotlarining, oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining malakali mutaxassislarini, shu jumladan xorijiy ekspertlarni jalb qiladi.

4. Virtual akademiyada o‘qitish quyidagi kontingent uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘quv dasturlari asosida olib boriladi:

aholi, tadbirkorlik subyektlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari vakillari;

ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, o‘quvchilari va talabalari;

davlat organlari va tashkilotlarining davlat xizmatchilari (keyingi o‘rinlarda — davlat xizmatchilari);

davlat ishtirokidagi korxonalarning xodimlari.

5. Belgilab qo‘yilsinki:

a) Virtual akademiyada o‘qitish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bazaviy hamda maxsus o‘quv kurslari bo‘yicha yo‘lga qo‘yiladi. Bunda:

bazaviy o‘quv kurslarida o‘qitish barcha foydalanuvchilar uchun bepul asosda tashkil etiladi;

maxsus o‘quv kurslarida malaka oshirish to‘lov-shartnoma asosida amalga oshiriladi;

b) davlat xizmatchilariga Virtual akademiyaning maxsus o‘quv kurslarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida malakasini oshirish majburiy hisoblanadi. Bunda:

davlat xizmatchisi ishga qabul qilinganidan so‘ng uch oy ichida o‘quv kursidan o‘tadi;

davlat xizmatchilari malakasini oshirishning davriyligi har uch yilda kamida bir martani tashkil etadi;

korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari va korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan davlat xizmati lavozimlarida faoliyat ko‘rsatuvchi xodimlar uchun maxsus kurslar chuqurlashtirilgan o‘quv dasturlari asosida olib boriladi;

v) davlat xizmatchilari hisoblanmaydigan shaxslarni maxsus o‘quv kurslarida o‘qitish ixtiyoriylik asosida amalga oshiriladi.

6. Quyidagilar Virtual akademiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

to‘lov-shartnoma asosida o‘qitishdan tushadigan mablag‘lar;

Akademiyaning budjetdan tashqari mablag‘lari;

Agentlikning rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro tashkilotlarning grantlari va mablag‘lari;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

7. “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasining samarali faoliyatini ta’minlash va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha “yo‘l xaritasi” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

a) maxsus o‘quv kurslarida to‘lov-shartnoma asosida malaka oshirish uchun to‘lov miqdori Akademiyaning Vasiylik kengashi tomonidan Agentlik hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi;

b) maxsus o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan shaxslarga Agentlik va Akademiya tomonidan tasdiqlanadigan namunadagi sertifikat beriladi;

v) davlat xizmatchilarining malakasini oshirish bilan bog‘liq xarajatlar tegishli davlat organi yoki tashkilotiga ushbu maqsadlar uchun nazarda tutilgan budjet mablag‘lari doirasida yoxud ularning budjetdan tashqari mablag‘lari, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanadi;

g) to‘lov-shartnoma asosida o‘qitishdan tushadigan mablag‘lar Akademiya hisobvarag‘ida jamlanadi va quyidagi maqsadlarga yo‘naltiriladi:

Virtual akademiya faoliyatida foydalanishga oid materiallarni tayyorlash uchun buyurtmalar berish;

Virtual akademiya faoliyatini ta’minlashga mas’ul xodimlarni moddiy rag‘batlantirish va ularning malakasini oshirish;

Virtual akademiyaning uzluksiz ishlashi va uning faoliyatini samarali tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash;

o‘qitish jarayoniga tegishli xodimlar, ilmiy-pedagogik kadrlar va mutaxassislarni, shu jumladan xorijiy ekspertlarni jalb qilish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash.

Bunda, o‘qitishdan tushadigan mablag‘lar yuqorida nazarda tutilgan xarajatlar qoplanganidan so‘ng Agentlik va Akademiyaning budjetdan tashqari jamg‘armalariga teng ulushlarda taqsimlanadi.

9. Davlat organlari va tashkilotlari muntazam ravishda o‘z xodimlarining Virtual akademiyada korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida malakasini oshirib borishlarini ta’minlasin.

Davlat ishtirokidagi korxonalarga xodimlarini Virtual akademiyada korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida malakasini oshirish choralarini ko‘rib borish tavsiya etilsin.

10. Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni tizimli va samarali tashkil etish maqsadida:

Agentlik tomonidan oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan tavsiyaviy yillik ilmiy-tadqiqot mavzularini shakllantirish;

barcha oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijalarini Agentlikka taqdim etish;

Akademiya tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida erishilgan yutuqlar, milliy va xorijiy tajriba, ilmiy, uslubiy va amaliy ishlanmalar hamda ilmiy-tadqiqot ishlari bo‘yicha elektron ma’lumotlar bazasini mualliflik huquqlariga rioya qilgan holda yuritish tartibi joriy etilsin.

Agentlik va Akademiya sohadagi ilmiy tadqiqotlarni maqsadli va sifatli amalga oshirish, natijalarini ommalashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashiga muntazam ravishda takliflar kiritib borsin.

11. Agentlik va Akademiya:

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda Virtual akademiyada o‘qitishni tashkil etish tartibini ishlab chiqib, tasdiqlasin;

2025-yil 1-yanvarga qadar “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasi va uning mobil ilovasini ishga tushirsin.

12. Akademiya Agentlik, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda:

2024-yil 1-oktabrga qadar ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, o‘quvchilari va talabalari uchun Virtual akademiyada tashkil etiladigan maxsus dasturlar va kontentning ishlab chiqilishini;

muntazam ravishda ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, o‘quvchilari va talabalari uchun maxsus dasturlar va kontentning yangilab borilishini ta’minlasin.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ta’lim oluvchilar uchun Korrupsiyaga qarshi ta’lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi (GRACE) dasturi doirasida sifatli multiplikatsion film, videolavha va audiomateriallarni yaratish maqsadida xorijiy investitsiyalar, grantlar hamda homiylik xayriyalarini jalb qilish choralarini ko‘rsin.

13. Agentlik va Bosh prokuratura O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan birgalikda mazkur qarorning mazmun-mohiyati hamda maqsad va vazifalarining ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta’minlasin.

14. Agentlik ikki oy muddatda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

15. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Agentlik direktori A.E. Burxanov va Bosh prokuror N.T. Yo‘ldoshev belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi raisi T.K. Narbayeva hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari bo‘yicha maslahatchisi D.B. Kadirov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2024-yil 21-iyun,
PQ-228-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-228-son qaroriga
ILOVA

“Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasining samarali faoliyatini ta’minlash va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha

“YO‘L XARITASI”

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ul ijrochilar
I. “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasi faoliyatini samarali tashkil etish					
1.	“Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasi (keyingi o‘rinlarda — Virtual akademiya)da o‘qitishni tashkil	Idoraviy hujjat	2024-yil sentyabr	-	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Huquqni ?uhofaza qilish akademiyasi, manfaatdor vazirlik va idoralar

	etish tartibini tasdiqlash.				
2.	Virtual akademiyada korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida erishilgan yutuqlar, milliy va xorijiy tajriba, ilmiy, uslubiy va amaliy ishlanmalar bo‘yicha elektron ma’lumotlar bazasini yuritish tartibini tasdiqlash.	Idoraviy hujjat	2024-yil oktyabr	-	Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, manfaatdor vazirlik va idoralar
3.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitilishi lozim bo‘lgan davlat xizmatchilari kontingentini shakllantirish, yillik o‘qitish reja-grafigini tasdiqlash.	Idoraviy hujjat	2024-yil oktyabr	-	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
4.	Tinglovchilarning bilimlarni o‘zlashtirishi natijalari bo‘yicha elektron ma’lumotlar bazasini shakllantirish, o‘quv kurslarini tamomlagan shaxslarning reyestrini yuritish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	-	Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
5.	Virtual akademiyada o‘quv jarayoni sifatli tashkil etilishini monitoring qilish tartibini belgilash.	Idoraviy hujjat	2024-yil sentyabr	-	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi

6.	Maxsus o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan shaxslarga taqdim etiladigan sertifikat namunasini tasdiqlash.	Idoraviy hujjat	2024-yil sentyabr	-	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
7.	Virtual akademiyada ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, o‘quvchilari va talabalari uchun o‘quv dasturlarini tasdiqlash.	Tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar	2024-yil oktyabr	-	Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
8.	Ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, o‘quvchilari va talabalari uchun o‘quv kontentini ishlab chiqish va doimiy yangilab borilishini ta’minlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2024-yil oktyabr Doimiy	-	Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
9.	Korrupsiyaga qarshi ta’lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi (GRACE) dasturi doirasida: sifatli multiplikatsion film, videolavha va audiomateriallarni yaratish maqsadida xorijiy investitsiyalar, grantlar hamda homiylik xayriyalarini jalb	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	-	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi

	qilish choralarini ko‘rish; o‘quv materiallarini davlat tiliga tarjima qilish (multiplikatsion film, videolavha va audiomateriallarni dublyaj qilish) va Virtual akademiyaga joylashtirish.				
10.	Virtual akademiyada korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘quv jarayonini tashkil etish, shu jumladan o‘quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqib, kurslar haqidagi ma’lumotlarni Virtual akademiyada joylashtirish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	-	Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
11.	Virtual akademiya elektron platformasi va uning mobil ilovasini ishga tushirish.	Kompleks chora-tadbirlar	2025-yil 1-yanvarga qadar	-	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
12.	Virtual akademiyadagi o‘quv jarayoniga davlat organlari va tashkilotlarining, oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining malakali mutaxassislarini, shu jumladan	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	-	Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

	xorijiy ekspertlarni jalb qilish.				
13.	Virtual akademiyaning uzluksiz ishlashini, o‘quv kontenti va materiallari bilan muntazam to‘ldirilishi va yangilab borilishini ta’minlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	-	Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
14.	Davlat organlari va tashkilotlari muntazam ravishda o‘z xodimlarining Virtual akademiyada korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida malakasini oshirib borish ishlarini ta’minlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	-	Vazirlik va idoralar, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi
15.	Davlat ishtirokidagi korxonalar xodimlarini Virtual akademiyada korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida malakasini oshirib borish choralarini ko‘rish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	-	Davlat ishtirokidagi korxonalar, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi
16.	Virtual akademiya faoliyati yuzasidan axborot va takliflarni tayyorlab, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish	Tashkiliy chora-tadbirlar	Har yil yakuni bo‘yicha	-	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

	milliy kengashiga kiritib borish.				
II. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini oshirish					
17.	Oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan tavsiyaviy yillik ilmiy-tadqiqot mavzularini shakllantirish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Har yili noyabr-dekabr	-	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari
18.	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlar natijalarini Agentlikka taqdim etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Har yili	-	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari
19.	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida erishilgan yutuqlar, milliy va xorijiy tajriba, ilmiy, uslubiy-amaliy ishlanmalar va ilmiy-tadqiqot ishlari bo‘yicha elektron ma’lumotlar bazasini mualliflik huquqlariga rioya qilgan holda yuritish tartibini joriy etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2024-yil noyabr Keyinchalik doimiy	-	Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
20.	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni maqsadli va sifatli	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	-	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

	amalga oshirish, natijalarini ommalashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashiga takliflar kiritib borish.				
21.	Yoshlar orasida Virtual akademiya imkoniyatlarini keng targ‘ib qilish orqali jalb qilingan yoshlar sonini oshirib borish.	Chora-tadbirlar dasturi	Doimiy	-	Yoshlar ishlari agentligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
III. Virtual akademiyaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash					
22.	Virtual akademiyada o‘qitishni tashkil etish uchun qo‘shimcha zamonaviy uskunalar, serverlar va boshqa jihozlarni xarid qilish va o‘rnatish.	Kompleks tashkiliy chora-tadbirlar	2024-2025-yillar Keyinchalik zaruratga ko‘ra	Xalqaro donorlarning mablag‘lari	Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi
23.	Korrupsiyaga qarshi kurashishning dolzarb muammolari yuzasidan ilmiy-tadqiqot dasturlari va loyihalarini amalga oshirish uchun milliy, xorijiy va xalqaro grantlarni jalb qilish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	-	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
24.	Virtual akademiyaning	Kompleks tashkiliy	2024-yil noyabr		Huquqni muhofaza qilish akademiyasi,

	samarali ishlashi uchun mahalliy va xorijiy huquqiy hamda axborot-tahliliy elektron nashrlarga muntazam obunasini ta’minlash.	chora-tadbirlar	Keyinchalik doimiy	Xalqaro donorlarning mablag‘lari	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
25.	Virtual akademiyani Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining elektron axborot-kutubxona fondiga va yetakchi xorijiy axborot-kutubxona resurslari fondlariga ulash.	Kompleks tashkiliy chora-tadbirlar	2024-yil noyabr	Xalqaro donorlarning mablag‘lari	Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiya[illegible]ar agentligi, O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
26.	Virtual akademiyani sifatli o‘quv kontenti va materiallari bilan ta’minlash maqsadida Huquqni muhofaza qilish akademiyasining multimedia studiyasini takomillashtirish va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash.	Kompleks tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	Xalqaro donorlarning mablag‘lari, to‘lov-shartnomadan tushgan mablag‘lar	Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi

27.	Virtual akademiyada o‘qitish va malaka oshirish o‘quv dasturlarini kontingent uchun moslashtirish va o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv-uslubiy materiallarni tayyorlash.	Kompleks tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	Xalqaro donorlarning mablag‘lari, to‘lov-shartnomadan tushgan mablag‘lar	Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
28.	Virtual akademiyaning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish: yetakchi ilmiy-tadqiqot, axborot-tahliliy muassasalar va boshqa tashkilotlar bilan memorandumlar, o‘zaro hamkorlik kelishuvlarini tuzish, qo‘shma dasturlarni amalga oshirish; Virtual akademiyaning faoliyatini tashkil etuvchi o‘qituvchi-xodimlarning malakasini oshirish va o‘qitish jarayoniga xorijiy	Kompleks tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	Xalqaro donorlarning mablag‘lari	Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi

	mutaxassislarni jalb qilish amaliyotini joriy etish; o‘qituvchi-xodimlarni xorijiy mamlakatlar ta’lim muassasalarida stajirovka o‘tashini tashkil etish.				

(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.06.2024-y., 07/24/228/0437-son)